

TARJIMASHUNOSLIK

UO'K(UDC, УДК): 821.56.18 KBK: 84.3 (6uzb)

QARDOSH XALQLAR ADABIYOTIDA MAXTUMQULI
ASARLARINING TARJIMA FENOMENI ²⁰

Sapaeva Feruza Davlatovna

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti**jahon adabiyoti kafedrası professori,**Toshkent, O'zbekiston**E-mail: feruzasapayeva86@gmail.com.**ORCID ID: 0009-0004-1079-8754*

ANNOTATSIYA

KALIT SO'ZLAR

Mazkur maqolada Maxtumquli asarlarining turkiy tillardagi tarjimalari (o'zbek, qoraqalpoq, ozarbayjon, turkman tillari), xususan qardosh xalqlar adabiyotida Maxtumquli asarlarining tarjima fenomeni xususida fikr-mulohaza bildiriladi. Mumtoz matnlar tarjimasida qardosh o'zbek-turkman, qoraqalpoq, ozarbayjon adabiy aloqalarida Maxtumquli maqomi, xususan mumtoz she'riy yoki nasriy matnlar tarjimasi, tarixi, ularni ilmiy tadqiqot sifatida o'rganish, adabiy-madaniy aloqalar tarixini yoritishda, adabiy ta'sir shakllari, ularning o'zaro diffuziyasi, adabiy an'ana va unga munosabat masalalari ochib berildi. Shoir asarlari tarjimasi borasida o'zbek, qoraqalpoq, ozarbayjon olimlari katta ilmiy natijalarni qo'lga kiritgani va hozirga qadar Maxtumqulining boy merosini o'rganish va tarjima etish ishlari izchil davom etayotgani dadalillandi va ularning poetik tasvir vositalari hamda ma'no qatamlarining o'zaro uyg'unligi ochiqlandi.

Maqolada qardosh xalqlar adabiyotida Maxtumquli asarlarining tarjima fenomeni, shoir asarlarini qardosh tillarga tarjimalariga bildirilgan ba'zi mulohazalar tahlillangan. Maxtumquli ijodidagi tasviriy ifodalar – obrazlarning badiiy uslub shakllanishidagi o'rni hamda poetik uyg'unlashuvi yoritilgan. Shuningdek, ushbu maqolada qardosh tillar tarjimashunosligi adabiy aloqalari ham uzoq tarixiy ildizlarga ega ekanligi, ushbu xalqlarning umumiy madaniyati, tili va turmush tarzi bilan bog'liqligi haqidagi tadqiqotlar xususida ham bahs yuritildi.

Maxtumquli, she'r, badiiy tarjima, tarjima nazariyasi o'zbek, qoraqalpoq, ozarbayjon, turkman tili, shakl, mazmun, adabiy aloqalar, qadriyatlar, madaniyat.

Received: November 25, 2025**Accepted:** December 2, 2025**Available online:** February 25, 2026

²⁰ **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Sapaeva F. Qardosh xalqlar adabiyotida Maxtumquli asarlarining tarjima fenomeni. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2026. — Vol.3, № 1(9) — B. 281-305.

THE PHENOMENON OF TRANSLATION OF MAKHTUMKULI'S WORKS IN THE LITERATURE OF BROTHERLAND PEOPLES.

Sapaeva Feruza Davlatovna

Uzbek State University of World Languages

Professor of the Department of World Literature,

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: feruzasapaeva86@gmail.com.

ORCID ID: 0009-0004-1079-8754

ABSTRACT

In this article, reflections are offered on the phenomenon of translating Maxtumorquli's works into Turkic languages (Uzbek, Karakalpak, Azerbaijani, and Turkmen), with particular attention to the phenomenon of translation of Maxtumorquli's works within the literatures of kindred peoples. The article explores the role of Makhtumquli in the translation of classical texts and in the literary ties between the fraternal Uzbek-Turkmen, Karakalpak, and Azerbaijani literatures. In particular, it examines the translation and historical development of classical poetic and prose texts, their study as academic research, their role in revealing the history of literary and cultural relations, forms of literary influence and mutual diffusion, and the issues of literary tradition and its interpretation.

It is substantiated that Uzbek, Karakalpak, and Azerbaijani scholars have achieved significant academic results in translating Makhtumquli's works, and that the study and translation of his rich legacy continue consistently to this day. The article also highlights the harmony between poetic imagery and layers of meaning in these translations.

Furthermore, the article analyzes the phenomenon of translating Maxtumorquli's works in the literatures of related peoples, as well as several remarks made regarding the translations of the poet's works into related languages. The role of Makhtumquli's figurative expressions - his imagery - in the formation of artistic style and poetic coherence is elucidated. The article also discusses the deep historical roots of Uzbek, Karakalpak, Azerbaijani, and Turkmen literary relations, as well as their connection to the shared culture, language, and lifestyle of these peoples.

KEY WORDS

Maxtumorquli, poetry, literary translation, translation theory, Uzbek, Karakalpak, Azerbaijani, Turkmen language, form, content, literary relations, values, culture.

ФЕНОМЕН ПЕРЕВОДА ПРОИЗВЕДЕНИЙ МАХТУМКУЛИ В ЛИТЕРАТУРЕ БРАТСКИХ НАРОДОВ

Сапаева Феруза Давлатовна

профессор кафедры мировой литературы

Узбекский государственный университет мировых языков,

Ташкент, Узбекистан

E-mail: feruzasapaeva86@gmail.com.

ORCID ID: 0009-0004-1079-8754

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлены выводы и размышления о статусе творческого наследия Махтумкули в контексте узбекско-каракалпакско-азербайджанских литературных связей. Рассматривается значение феномена Махтумкули в исследованиях переводов классических текстов в аспекте литературных отношений между родственными узбекской, туркменской, каракалпакской и азербайджанской литературами. Особое внимание уделяется переводу классических поэтических и прозаических текстов, историческому развитию взглядов на их изучение в качестве объекта научного исследования, освещению истории литературно-культурных связей, форм литературного влияния и взаимопроникновения, вопросам литературной традиции и отношения к ней.

Доказано, что учёные Узбекистана, Каракалпакстана и Азербайджана достигли значительных научных результатов в переводе произведений Махтумкули и что исследование и перевод его богатого наследия последовательно продолжают до настоящего времени. Также показана гармония поэтических образов и смысловых уровней, достигнутая в этих переводах.

В статье осуществляется анализ отдельных замечаний, адресованных переводчикам, занимавшимся переводами произведений Махтумкули на родственные языки, освещается значение изобразительных средств (образов) в творчестве Махтумкули для передачи особенностей его художественного стиля и отличающей его произведения поэтической гармонии. Кроме того, обсуждаются глубокие исторические корни литературных связей между узбекской, каракалпакской, азербайджанской и туркменской литературой, а также их связь с общей культурой, языком и образом жизни этих народов.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Махтумкули, поэзия, перевод, узбекский, каракалпакский, туркменский языки, форма, содержание, литературные связи, сотрудничество, культура.

KIRISH

Aslida adabiyotshunoslik tarixi kabi tarjimashunoslik tarixi ham antik davrdan boshlanadi. Ma'lumki, yunonlar Sharq va G'arbning o'zlarigacha erishgan yutuqlarini o'zlashtirish va rivojlantirish asosida yuksalib, antik davr tamaddunining asosini qo'yganlar. Buning uchun ko'plab ilmiy-adabiy, diniy asarlarni o'z tillariga tarjima qilganlar va bu jarayonda tarjimaning ko'plab qoidalarini ham ishlab chiqqanlar. Bu davrda so'zma-so'z va erkin tarjima usullari yetakchilik qilgan. Diniy asarlar asosan so'zma-so'z, badiiy asarlar erkin tarjima qilingan. Ilmiy asarlar esa sharhu izohlar bilan ikkinchi tilga o'tkazilgan. Sitseron, Horatsiy, Kvintilian kabi antik davr olimu adiblarining tarjima haqidagi fikr-qarashlari saqlanib qolgan.

Chunonchi, Esxil, Demosfen kabi yunon notiqlarining nutqlarini lotin tiliga o'g'irgan Sitseron asliyatning shakl va mazmunini saqlagan holda, matnga erkin yondashganini ta'kidlaydi: "O'ylaymanki, o'quvchi mendan so'zlarning sanog'ini emas, balki ma'noning salmog'ini talab qiladi" (Гачечиладзе Г., 1970, 5-7), – deydi u tarjimada o'zi qo'llagan usulni asoslab. Keyin yunon tamaddunining vorislari sifatida maydonga chiqqan rimliklar antik davr ilmi va adabiyoti tarjimasida erkin usul asosida ish ko'rganlar – ular uchun tarjimada asliyatning mazmuni va estetik ta'sirini yetkazish muhim hisoblangan. Rim shoiri Horatsiy "Badiiy san'at haqida" nomli risolasida so'zma-so'z tarjima qilishga uringan tarjimonning zahmatini qulning mehnatiga o'xshatib, uning ustidan kulgan edi. Shuning uchun IV asrda "Bibliya"ni qadimgi yahudiy tilidan lotin tiliga o'g'irgan Iyeronim ham ma'no tarjimasini asos qilib olgan, bizningcha, bu borada Sitseronning "so'zni so'z bilan emas, ma'noni ma'no bilan tarjima qilish kerak" degan fikriga tayangan.

O'zbek adabiyoti ham boy va rang-barang tarjima asarlari, shunga muvofiq, tarjimaga oid turli-tuman fikrlar silsilasiga ega. "Biz tarjimachilik sohasida uzoq asrlarga borib taqaluvchi tarixiy tajriba va katta ijodiy an'analar vorisimiz", – deydi bu haqda G'.Salomov. O'zbek tarjimachilik tarixi turli-tuman uslublarga, janrlarga, mavzularga, yo'nalishlarga boy. Bu tarjimalarda har bir davrning o'ziga xos xususiyatlari o'z aksini topgan. Garchi tarjima jarayonida to'plangan boy faktik

material o'z davrida ilmiy tomondan maxsus o'rganilmagan bo'lsa-da, bu – tarjimonlarning muayyan prinsiplarga tayanib ish ko'rganliklarini rad etmaydi” (Саломов F., 1966, 6).

Zero, o'tmishda “yaratilgan badiiy tarjimaning ajoyib namunalari (o'z davri talabiga muvofiq) o'zbek adiblari tarjima san'atidan juda yaxshi xabardor bo'lganliklarini namoyish etuvchi dalillardir. Tarjima sohasida ular beqiyos katta mahorat ko'rsatganlar. Faqat afsuslanadigan joyi shundaki, bu qadimiy san'at, jamg'arilgan katta madaniy boylik nazariy jihatdan o'rganilmagan, ilmiy umumlashtirilmagan. Bunga o'tmishda vaqtli matbuot va kitob nashr etishning juda kech va sust rivojlangani ham sabab bo'lgan edi. Ammo, shunga qaramasdan, tarjima bo'lgan bir qancha asarlarning muqaddimalarida, yirik olimlarning kitoblarida bu borada ko'pgina qimmatli fikrlar mavjudki, ularni qidirib topish, klassik tarjima nazariyasi majmuasini yaratish mazkur masalani ijobiy hal qilishga imkon beradi” (Комилов Н., 1976, 55) – deganlarida haqli.

Bilamizki, Muso Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Zamaxshariy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Maxtumquli Firog'iy, Abay, Berdaq, Ajiniyoz kabi qator allomalarimizning nomlari va mumtoz asarlari tarjima tufayli butun dunyoga mashhur bo'ldi. Meditsina so'zi avitsenna (Ibn Sino), algoritm so'zi Al-Xorazmiy, algebra termini Xorazmiyning “Al-jabr” asari nomidan kelib chiqqani ma'lum.

Hozirgi raqamlar ham Yevropaga Xorazmiy asari orqali tarqalgan. “Buyuk italyan shoiri va mutafakkiri Aligyeri Dantening kosmogonik qarashlari Farg'oniyning “Samoviy jismlar harakati” kitobi ta'sirida shakllangan. Shuningdek, Ibn Sinoning “Ishq haqida risola” asari ham unga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Yana bir italyan adibi Jovanni Bokkachchoning “Dekameron”idagi 100 ta novelladan 87 tasi Sharq xalqlari og'zaki va yozma ijodidan olingan. “Ming bir kecha”, “Kalila va Dimna”, “To'tinoma” singari nasriy asarlarning tarjima etilishi ispancha, italyancha didaktik kitoblar yaratilishiga, novella janrining shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Dastlabki G'arb romanlaridagi qiziqarli sarguzashtlarni hikoya qilish usuli bevosita Sharq adabiyoti ta'siridandir.

Darhaqiqat, mumtoz she'riy yoki nasriy matnlar tarjimasini, tarixi, ularni ilmiy tadqiqot sifatida o'rganish, adabiy-madaniy aloqalar tarixini, xalqlar orasidagi do'stlik va hamkorlik tarixini yoritishga, adabiy ta'sir shakllari, ularning o'zaro diffuziyasi, adabiy an'ana va unga munosabat masalalarini aniqlashga ko'maklashadi. Bu, o'z navbatida, regionlar, mintaqalardagi va butun dunyodagi adabiy jarayon, oqimlar, g'oyalar tutashuvi, irsiy davomiylik va tipologik mushtarakliklarni kuzatish, jahon adabiyoti taraqqiyotining ichki dialektik bog'lanishlarini bilib olishga imkon beradi. Ya'ni tarjima, komparativistika – qiyosiy adabiyotshunoslik muammolarini tadqiq etishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu o'rinda Maxtumdul asarlarini birinchi bor o'zbek tiliga o'g'irgan ilk mutarjim va uni tarjimalariga bildirilgan ba'zi mulohazalarni namuna sifatida keltirishni lozim topdik.

Maxtumdul asarlarining O'zbekistonga kirib kelishi tarixi haqida turkman olimlari bergan ma'lumotlarga qaraganda, Maxtumdul asarlari O'zbekistonda XX asrning birinchi o'n yilligida paydo bo'la boshlagan. Dastlab shoirning she'rlari "Turkiston viloyati gazetasi"da e'lon qilingani to'g'risida manbalar bor. Turkman olimi A.Abdiyev tuzgan "Maxtumdul" bibliografik ko'rsatkichda berilishicha, "Turkiston viloyati gazetasi" ning 1907-yildagi 18-sonida shoirning she'rlari bosilgan (A.Абдыев, 1993, 28-29). Bundan tashqari, shu manbada yozilganidek, 1910-yilda Buxoroda Maxtumdulning 80 betdan iborat "Devoni hazrati Maxtumdul" majmuasi chop etilgan. Xuddi shu devon 1911-yilda Buxoroda yana qayta bosilgan. Shoirning "She'rlar" (o'ttiz ikki tuxum qissasi va Maxtumdul) nomli kitobi Toshkentda, Orifjonov matbaasida, toshbosma usulida nashrdan chiqarilgan. 1914-yilda esa Buxoroda shoirning 164 sahifalik "Devoni hazrati Maxtumdul" (nashrga tayyorlovchi Gurbandurdi Gurgeni) nashr etildi (Кыпamбoев K., 2011, 146).

Ko'rib turganimizdek, Maxtumdul asarlarining O'zbekistonga tarqalishi bevosita Buxoro va Toshkent bilan bog'liq. O'zbekiston FA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan Maxtumdulning bir necha devonlari

aynan Buxoro va Toshkentda chop etilgan kitoblarning nusxalari bo'lsa ajabmas. Bu faktlar shundan darak beradiki, O'zbekistonda Maxtumduli merosiga, she'riyatiga qiziqish bugun yoki kecha paydo bo'lgan emas, balki yuz yillarga borib taqaladi. Shoir asarlari o'zbek tiliga tarjima qilinmasdan ancha ilgari xalqimiz qalbiga kirib ulgurgan edi. Biz shorning alohida nashr etilgan devonlari haqida gapirdik. Vaholanki, o'sha yillardayoq Maxtumdulining turkum she'rlari har xil bayozlarga, devonlarga kiritilib, ommalashtirilgan, odamlardan yozib olinib, qo'lyozmalar shaklida ham muxlislarga tarqatilgan.

XX asrning 50-yillaridan e'tiboran Maxtumduli she'rlari O'zbekistonda, baxshilar, xalfalar, san'atkorlar, keyinchalik tarjimonlar faoliyati bilan bog'liq ommalasha boshladi. Jumladan, o'tgan asrning 50-yillaridan boshlab Maxtumduli she'rlarini rasman o'zbek tiliga tarjima qilishga kirishildi. Ilk tarjimalar dastlab matbuotda ko'rindi. 1958-yilda shoirning "Tanlangan asarlar"i birinchi marta o'zbek tiliga tarjima qilinib, "Fan" nashriyotida katta kitob shaklida, uch ming nusxada bosildi. Kitobga Mirtemir muharrirlik qilgan. Unga professor Y.E.Bertels yozgan "So'z boshi", professor G.O.Choriyev qalamiga mansub "Maxtumduli" nomli portret-maqola ham ilova qilingan.

Maxtumdulining o'zbek xalqi orasidagi chinakam shuhrati Jumanioz Sharipov tarjimalari bilan bog'liq. Taniqli tarjimashunos olim va mohir mutarjim shoirning 314 ta she'rini tarjima qilib, 1958-yili "Tanlangan asarlar" nomi bilan nashr ettirdi. Keyinchalik, bu tarjimalar bir oz qisqartirilgan shaklda 1960, 1963 va 1976-yillarda yana juda katta adadlarda bosilib chiqdi.

Jumanioz Sharipov Maxtumdulining, asosan ijtimoiy va pand-nasihat yo'nalishidagi she'rlarini tanlab olgani uchun u o'zbek xalqi orasida didaktik shoir sifatida mashhur bo'ldi. Hukmron mafkura tazyiqi tufayli tarjimon bu she'rlardagi diniy-tasavvufiy mazmundagi o'rinlarni yo tarjima jarayonida o'zgartirishga yoki qisqartirishga majbur bo'ldi. Balki matniy o'zgarishlarning bir qismi o'z davrining "siyosiy hushyor" nashriyot muharrirlari tomonidan amalga oshirilgan bo'lishi ham mumkin. Shu tariqa, "Ketuvchi bo'lma" she'ridan – 7, "Yuz bo'lar" va "Ichida"

she'rlaridan – 6, “G‘iybatchi”, “Zo‘r bo‘lar” she'rlaridan – 4, “Yongan bormi?”dan – 3, “Ozodim qani?”, “Dilbarning”, “Foniy dunyo kerakmas”, “Fig‘onim bor”, “Bo‘lmasa”, “Qon chiqar”, “Yigitga”, “Ketmasmish”, “Bo‘lmasin”, “Raftoridir”, “Turibdir”, “Tog‘ sanar”, “Bo‘lmaydi”, “Xoru zor bo‘lding”, “Bechora”, “Boradir”, “Bo‘lsin, Firog‘iy” she'rlaridan 2 banddan, “Istayman”, “Yig‘lab o‘tar holimga”, “Boradir”, “Yo‘lda seni”, “Ko‘zim tushdi”, “Bo‘ylaringga”, “Yo Jabbor”, “Yondirar”, “Tuz ham bo‘lmasa”, “Kelgay”, “Ko‘rinar”, “Yayloqlari bor”, “Turkmanning”, “Aylar”, “Bilinar”, “Kerakdir”, “Bosh ustiga”, “Erda”, “Iqrorsiz erda”, “Bilan”, “Eldan uyalmog‘”, “Bo‘lmas”, “Toshni sindirar”, “Lola keltirmish”, “Hech bilmas”, “To‘n kerak”, “O‘xshar”, “Zar bo‘lmas”, “Yaxshi”, “Shaylamayinmi”, “Dunyodir”, “Hindistonda xayolim”, “Oxirzamona”, “Yoronlar”, “Do‘ndi”, “Dahanga”, “Yoshlar ichida”, “Yonida”, “Jon istar”, “Kerakdir”, “Aylading”, “Ko‘p bo‘lsa”, “Uyg‘anmas”, “Aylandi” she'rlaridan bir banddan, shuningdek, aruz vaznidagi “Dunyoga belgilidir” g‘azali, “Bir necha misol” she‘ridan 3 baytdan, “Foniy jahon kerakmas” g‘azalidan 2 bayt, “Judo bo‘ldim” she‘ridan 9 misrali bir band, “Bizni” muxammasidan bir band tushib qolgan.

Bunday statistikadan ma‘lum bo‘ladiki, J.Sharipov 73 ta she‘rni u yoki bu darajada qisqartirib tarjima qilgan bo‘lib, tarjimashunoslik ilmi nuqtai nazaridan bu holat adekvat tarjima talablariga muvofiq kelmaydi. Asar qisqartirib tarjima qilindimi, uning qaysidir ma‘no qirrasini mavhum qoladi, muallif fikri xiralashadi; asar mazmunida muallif ko‘zda tutgan maqsad to‘la ochilmaydi. To‘g‘risi, Maxtumlulidek mumtoz so‘z san‘atkorlarining durdona she‘rlari, asrlardan beri insonlar qalbiga zavq ulashib kelayotgan misralarini qisqartirish o‘zini oqlamaydi, albatta.

J.Sharipov tarjimalari maxsus tadqiq etilmagan bo‘lsa-da, turli yillarda G‘.Salomov, H.Abdullayev, K.Quramboyev, E.Ochilov, (F.Sapayeva – kamina), M.Saparov, M.Taylaqova, J.Yusupov kabi mutaxassislar bu borada o‘zlarining fikr-mulohazalarini bildirganlar. Albatta, bu tarjimalarning juz‘iy kamchiliklari ko‘p,

lekin o‘ziga xos yutuqlari ham oz emas.

Ayni damda mutaxassislar fikricha: “Tarjimon maqtovdan ko‘ra ko‘proq tanqid eshitgani ma’lum. Chunki bu tarjimalarning yutuqlari ko‘p bo‘lishi barobarida, kamchiliklari ham kam emas. Lekin ular yuzasidan yozilgan maqolalar, qilingan chiqishlarda tarjimonning mahorat sirlarini ochib berishdan ko‘ra, ehtirolarga berilib, uni chalg‘itgan turkmancha so‘zlarni topib olib, tanqid qilishga urg‘u berilgani sir emas. Holbuki, Jumaniyoz Sharipov tarjimalari Maxtumlulini xalqimiz orasida ikkinchi marta chinakamiga mashhur qildi. Agar bu tarjimalar muvaffaqiyatsiz chiqqanda qayta-qayta nashr etilmas, “Bo‘ylaringga”, “Ko‘ring”, “To‘xtamas”, “Aylar”, “Namasan”, “Yurging keladi”, “Ayrildim”, “Bo‘lmasa”, “Qaramas”, “Bo‘lmas” kabi bir necha o‘nlab she’rlar hofizlar tiliga tushib, qo‘shiqqa aylanmas edi” (Очилов Э., 2008,14). Masalan, “Yor aylar” she’ridan olingan quyidagi misralar shakl va mazmun jihatidan asliyatga juda mos keladi:

Asliyatda: Аклиң болса, ягшиларга хемдем бол,
Акмак өзүн надан биле яр эйләр!
Хак ашиклар нэзли яриң жемалин
Бир гөрсем дийп, гиже-гүндиз зар эйләр (МШ,1,190).

Tarjimada: Oqil bo‘lsang, yaxshilarga hamdam bo‘l,
Axmoq o‘zin nodon bila yor aylar.
Chin oshiqlar nozli yorning jamolin
Bir ko‘rsam deb, kecha-kunduz zor aylar (TA,189).

Tarjimonning bunday yutuqlari “Naylayin”, “Bilmasmiding”, “Kelmadi”, “Izlamayin bo‘larmi”, “Bu dardni”, “Namasan”, “Yurging keladi”, “Bo‘ylaringga”, “Bo‘lmasa”, “Chiqadir”, “Pora-poradir”, “Kelgay”, “Maydon yo‘liqsa”, “Ko‘z ko‘rmagan yerda”, “Aylar”, “Ko‘ring”, “Joniga tengmas”, “Bilmadim”, “Dalolat yaxshi”, “Seni”, “Suhbat yaxshidir”, “Qolmas”, “Bo‘lmas”, “Toshni sindirar”, “Bilinar”, “Kechib boradir”, “Yoronlar”, “Kelgan ham bordir”, “Iqbol bo‘lmadi”, “Ko‘zga mehmondir”, “Zorlar ichida”, “Abdulla”, “Qarilikdir, yoronlar”, “El yaxshi”, “Yolg‘izning”, “Oxirzamona”, “Savol-javob”, “Holimga mening”,

“Yoronlar”, “Dastingdan”, “Zamon bo‘lmadi”, “Ko‘zlaring”, “O‘tib boradir”, “Kunlarim” kabi o‘nlab she‘rlarida ham kuzatiladi.

Maxtumqulishunos olim, professor Karimboy Quramboyev “Maxtumquli she‘rlarining o‘zbek tiliga tarjimasi ko‘p jihatdan yaxshi chiqqan”i, chunki Jumaniyoz Sharipov “tarjimaga katta ijodiy tayyorgarlik bilan kirishganini, “tarjimonning original tilini, o‘sha asar mansub bo‘lgan xalq hayotini, milliy psixologiyasini, urf-odatlarini” yaxshi bilishi, shuning uchun “Maxtumqulining ko‘pchilik she‘rlarini originaldagidek ravon, sodda, kitobxonga estetik zavq bag‘ishlaydigan qilib bera olgan”ini ta’kidlaydi: “Maxtumquli she‘rlaridagi teran falsafiy fikrlar, qimmatli o‘git-nasihat motivlari, chuqur ma’no kasb etib turadigan hikmatli so‘zlarning o‘zbek tiliga tarjimasi ham asl nusxadagidek chiqqan” ligi haqida yozdi. Olimning J.Sharipov Maxtumqulining, ayniqsa, axloqiy-didaktik she‘rlarini o‘zbek tiliga qoyilmaqom qilib tarjima qilgani haqidagi fikrlari ma’qul. Lekin shoirning “aruzda yozilgan she‘rlarini ma’nodor, jozibali va jarangdor misralarda o‘zbek tiliga o‘giradi” degan fikrlari bir oz bahsli. Chunki bu she‘rlarda vazniy saktaliklar uchraydi. K.Quramboyevning fikricha, J.Sharipov tarjimasidagi xatolar asosan ikki tildagi o‘zaro o‘xshash so‘zlar – soxta ekvivalentlar bilan bog‘liq. Olimning xulosasiga ko‘ra, Maxtumquli she‘rlari tarjimasidagi xatolar yutuqlari oldida uncha ko‘p emas, faqat ularning yangi nashrlarida tuzatilmay kitobdan kitobga ko‘chib kelayotgani yaxshi emas va “Maxtumquli she‘rlarining tarjimasi tarjimonning jiddiy tahririga muhtoj” ekani haqida qayg‘uradi.

M.Taylaqova va M.Saparovlar “Maxtumquli asarlari tilining o‘zbekcha tarjimasiga ba’zi bir qaydlar” deb nomlangan maqolalarida, nomidan ham ko‘rinib turganidek, Jumaniyoz Sharipov tarjimalarini til nuqtayi nazaridan tekshiradilar; tarjimonni xato qilishga majbur etgan o‘zbek va turkman tilidagi “shaklan yaqin va mazmunan yiroq” so‘zlarni tillararo omonimlar hamda tillararo paronimlar deb ikki guruhga ajratib o‘rganadilar”. Bunda omonimlarga turkmancha *jaxil* (yosh yigit) so‘zining *johil*, *nodon*, shunga muvofiq, *jaxillik* (yoshlik)ning *johillik*, *al* (ayyor, hiylagar) ning *qo‘l* deb noto‘g‘ri o‘zbekchalashtirishi, paronimlarga *don* (to‘n) ning

don, mucho (a'zo, uzv) ning *muchal, dulluk* (tullik)ning *to'liq, xodur* (tavsiya, taklif)ni *bekor, duymaz* (sezmas, bilmas)ning *to'ymas, bela* (balo) ning bola, *ugratdim* (kuzatdim, jo'natdim)ni *uchratdim* deb tarjima qilinishini keltirishadi. Olimlar bunday "aldoqchi so'zlar"ning tarjimonga pand berishining asosiy sababi sifatida uning turkman tilini yetarli darajada bilmasligini ko'rsatadilar va kelgusida bu xildagi xatolarning oldini olish maqsadida o'zbekcha-turkmancha, turkmancha-o'zbekcha lug'atlar tuzishni taklif qiladilar (Тайлакова М., Сапаров М., 1990,52). Taklif o'rinli va tarjima adabiyotida (o'zbek-turkman, turkman-o'zbek) haqiqatan bu muhim va dolzarb vazifa ekanligini hisobga olgan holda mazkur muammoni yechimi o'laroq ushbu yo'nalishdagi ilk lug'atimizni tuzib, chop ettirdik (Sapaeva F., 2023).

Har qanday tarjimada she'r qofiyasi hozirgi o'zbek o'quvchisi uchun tushunarsiz so'zlar bo'lsa, ularni aynan qoldirib, matn ostida izohlar bergandan ko'ra, adabiy matnga ijodiy yondashish, asliyatning mazmunini saqlagan holda she'r strukturasini qayta ko'rib chiqish yaxshi samara beradi. Qardosh tillardan tarjima talabi shunday: tushunarli so'zlar, misralar, bandlar o'zicha o'tkaziladi, tushunarsiz so'zlar tushunarlisi bilan almashtiriladi, lozim bo'lganda butun she'r tarkibi qayta shakllantiriladi. Misol uchun, "Maydon yo'liqsa" she'ri tarjimasida uchinchi bandning dastlabki ikki misrasidagi qofiya bo'lib kelgan so'zlar tarjima o'quvchisiga tushunarsiz bo'lgani uchun Ergash Ochilov ulardan voz kechadi va yangi qofiyalar asosida bandni qayta shakllantiradi:

Asliyatda: Иши дүрст гелмез көңүл ченине,
Додагини дишлөп, "ах" дийр зенине,
Йилан зэхри болуп яйрир тенине,
Йигит гаррир хатин яман ёлукса.

Tarjimada: Omadi yurishmas ko'ngilni xushlab,
"Oh!" – der xotiniga labini tishlab,
Taniga yoyilar zaharga o'xshab,
Yigit qarir ayol yomon uchrasa.

Ko'ngil chenina iborasini tarjimon ko'ngilni xushlab deb oladiki, bu asliyatga zid emas, ya'ni "Omadi yurishib, ko'ngli xush bo'lmas" yoki "Ko'ngil xush bo'lguday omadi yurishmas". Bundan tashqari, o'zbekchada ilon so'zi aks etmaganki, bu ham jiddiy kamchilik emas. Chunki bu yerda asosiy maqsad – zahar va uning ilongami, chayongami tegishliligi birlamchi emas.

Lekin aytish lozimki, Maxtumdul tarjimonlari orasida tarjimaga bunday erkin va ijodiy yondashish hodisasi juda oz uchraydi – ular deyarli asliyat doirasidan chetga chiqmaydilar. Asliyatdagi barcha so'zlar tarjima o'quvchisiga ham tushunarli bo'lgan hollarda bu ma'qul, hatto shart ham. Lekin tushunarsiz so'zlar qatorlashib kelganda bu usul o'zini oqlamaydi – bunda keltirilgan misoldagi kabi qofiyalarni yangilab, band qurilishini qaytadan shakllantirish kerak.

Bu fikrimizga qo'shimcha ushbu mulohazani ham keltirish o'rinli, tarjimonlik sir-sinoati ba'zan kishini ikkilantirib qo'yadiki, ijodiylik, an'anaviylik, millatga xos adabiyotlarning ichki qonuniyatlaridan boxabarlik – aslida san'at. Negaki, bir mahallar Rasul Hamzatovning "Bir xonadon farzandlari" kitobiga taqriz yozgan O.Abdullayev tarjimonlarni jumladan qofiya masalasiga hamisha ham e'tibor qaratmaslikda ayblagan edi. Holbuki, taniqli tarjimashunos N.V.Vladimirovaning yozgan e'tirozidan ma'lum bo'lishicha, aslida avar she'riyatida qofiya bo'lmay, shoir she'rlarini rus tarjimonlari ruschaga qofiyali qilib o'g'irgan ekanlar (Владимирова Н., 1985, 79).

XX asrda O'zbekistonda qoraqalpoq adabiyotining rivojlanishiga katta e'tibor qaratildi. Qoraqalpoq adiblari o'z asarlarini o'zbek tilida ham yozib, ikki xalq o'rtasidagi adabiy almashinuvni rivojlantirdilar. Ajiniyoz, Berdaq, Kunxo'ja, O'tesh, Ibrayim Yusupov, To'lapbergen Kayipbergenov kabi qoraqalpoq shoirlarining asarlari o'zbek adabiy jamoatchiligi orasida mashhur.

Shuningdek, o'zbek, qoraqalpoq va turkman adabiy aloqalari ham uzoq tarixiy ildizlarga ega bo'lib, ushbu xalqlarning umumiy madaniyati, tili va turmush tarzi bilan bog'liq. Qoraqalpoq va turkman xalqlari uzoq vaqt davomida qo'shni yashab, adabiyot, xalq og'zaki ijodi va san'at sohalarida o'zaro ta'sirda bo'lganlar.

Xalq ogʻzaki ijodidagi oʻxshashliklar – oʻzbek, qoraqalpoq va turkman folklori oʻzaro bogʻliq boʻlib, koʻplab dostonlar, qoʻshiqlar va ertaklarda umumiy motivlar mavjud. Ayniqsa, “Goʻroʻgʻli”, “Alpomish”, “Shohsanam va Gʻarib” (“Shahsenem-Garyp”) kabi dostonlarning ikkala xalq folklorida uchrashi bu aloqalarning chuqurligini tasdiqlaydi. Folklor janrlaridagi bu oʻxshashliklar qoraqalpoq va turkman xalqlarining tarixiy yaqinligi va umumiy madaniy ildizlaridan dalolat beradi. Har ikkala xalq ogʻzaki ijodida bahodirlik, adolatparvarlik, vatanparvarlik kabi gʻoyalar yetakchi mavzular hisoblanadi. Xususan, qoraqalpoq va turkman baxshilari ijro etgan dostonlar ohang va uslub jihatidan yaqinlik kasb etadi.

XIX – XX asrlarda yashab oʻtgan shoir va yozuvchilar qoraqalpoq va turkman adabiyotida oʻzaro taʼsir masalalari kuchli boʻlgan. Turkman shoiri Maxtumlulining sheʼriyati qoraqalpoq shoirlariga ham ilhom manbayi boʻlgan. Berdaq, Ajiniyaz, Kunxoʻja kabi qoraqalpoq shoirlari ham turkman adabiyoti bilan bogʻliq boʻlib, ularning asarlarida umumiy qardoshlik, erkinlik va xalq manfaatlarini himoya qilish motivlari aks etgan.

Maxtumlul merosi barcha turkiy ellarning, chunonchi ozarbayjon adabiyotini ham boyitishga katta hissa boʻlib qoʻshilgan. Maxtumlulining Ozarbayjonda sevilib, mashhur boʻlishining sababi uning sheʼrlarida umumturkiy motivlarning, obrazlar tizimining xalqchil ifoda etganligi bilan koʻrsatiladi.

Ozarbayjon xalqi Maxtumlul merosi bilan XVIII asrning ikkinchi yarmi XIX asrlardan tanisha boshlagan. Buning isbotini Ozarbayjon Milliy Fanlar akademiyasi Qoʻlyozmalar institutida Maxtumlul asarlarining XIX asrda koʻchirilgan ikki nodir qoʻlyozma nusxasi bugungi kungacha saqlanib qolganida ham koʻrish mumkin. XIX va XX asrlarning boshlariga qadar Maxtumlul asarlari qoʻlyozma va toshbosma kitoblar orqali ozarbayjonliklar tomonidan aslyatda oʻqilgan hamda tarjimaga ehtiyoj sezilmagan.

Ozarbayjonda Maxtumlul adabiy merosini tarjima qilish ishlari dastlab oʻtgan asrning 20-yillaridan boshlangan. Bu yoʻnalishdagi ilk tarjimalar taniqli ozar adabiyotshunosi Salmon Mumtoz tomonidan amalga oshirilgan. Salmon

Mumtozning bolalik davri Ashxobodda o'tgan, ilk saboqni ham o'sha yerda olgan. Salmon Mumtoz yoshlik davridayoq Maxtumduli ijodiga qiziqib qolgan.

Keyinchalik u o'z faoliyatini Ozarbayjonda davom ettirgan va Maxtumduli ijodi haqida o'zining "Turkman shoirlari" nomli maqolasini yozadi. Maqola 1923-yil "Maorif va madaniyat" jurnalining 8- va 9- sonlarida chop etiladi (Mümtaz S., 1923. 313-316).

Salmon Mumtozning ushbu maqolasida Maxtumdulining Durdi Shayx bilan topishmoq shaklida, savol-javob ko'rinishida yozilgan mashhur she'rini ozarbayjon tiliga moslashtirilgan tarjimada bergan. Ushbu moslashtirilgan she'riy tarjima Maxtumduli she'rlarining ozarbayjon tilidagi ilk tarjimasi hisoblanadi. She'riy misralar quyidagicha tarjima qilingan, *Maxtumduli*:

Ol nәмәdir yemәdilәр, doydular,
Ol nәмәdir uluq günә qoydular,
Ol kim idi dabanından soydular,
Şair olsan, şundan bizә xəbәр ber.

Durdi Shayx:

Ol didardır, yemәdilәр qoydular,
Ol namazdır qiyamәtә qoydular,
Nәsimini dabanından soydular,
Bizdән salam olsun cavab şeylәdir.

Agar ushbu tarjimadagi she'riy parchaga e'tibor qilinsa, unda asl matn bir oz ozarbayjon tiliga moslashtirib berilmoqda. Ushbu she'riy parcha o'zbek tilida (E.Ochilov tarjimasi) ham ayrim fonetik farqlarni hisobga olmasa deyarli ayni shaklda keladi. *Maxtumduli*:

Ul nimadir, yemadilar, to'ydilar?
Ul nimadir, qiyomatga qo'ydilar?
Ul kim edi, tovonidan so'ydilar?
Shoir bo'lsang, shundan bizga xabar ber!

Durdi Shayx:

Ul diydordir, yemadilar, to‘ydilar,
Ul namozdir qiyomatga qo‘ydilar.
Nasimiyni tovonidan so‘ydilar,
Bizdan salom bo‘lsin, javob shundaydir!

Mazkur she‘r qoraqalpoq tiliga o‘z millati salaflaridan farqli o‘laroq, faqatgina Abulqasim Otepbergenov tomonidan “Хабар бер – усындай” nomi bilan asliga xos tarjima qilingan. She‘r – xuddi turkman, ozar, o‘zbek tillarida qanday jaranglab chiqqan bo‘lsa, qoraqalpoq tilida ham bu jozibadorlik o‘z mavqeyini yo‘qotmagan. *Maxtumquli:*

Ол не нәрсе, жемей атып тойдылар,
Ол не нәрсе, қыяметке қойдылар,
Ол ким еди, табанынан сойдылар,
Шайыр болсаң, бизге соннан хабар бер.

Durdi Shayx:

Ол дийдардур, жемедилер тойдылар,
Ол намаздур, қыяметке қойдылар,
Нәсимийди табанынан сойдылар,
Бизден сәлем болсын, жуўап усындай.

Maxtumquli she‘rlarining ozarbayjon tilidagi birinchi noshiri va tarjimoni Salmon Mumtoz turkiy adabiyot bilan bog‘liq keyingi maqolalarida ham Maxtumquli she‘rlaridan unumli foydalangan hamda ilmiy ishlarida shoir she‘rlaridan o‘z tarjimalarini berib borgan. Xususan, uning “Halak” nomli maqolasida *halak* so‘zi Maxtumquli she‘rlarida uchrashi qayd etilgan va so‘z qatnashgan she‘riy parcha ham ozarbayjoncha tarjimada keltirilgan:

Dik tәpәdәn olmaz böyük minarә,
Yaman hәlәk düşsә, bir yaxşı әrә,
Başın kәsib, qanın töküb kәnarә,
Ya öldürüb, ya da satmaq olmayır.

Salmon Mumtoz tarjimalaridan keyin bir muddat Ozarbayjonda Maxtumdquli she'rlarining tarjimalari to'xtab qoldi. Faqatgina, 1956-yilga kelib professor Panah Xalilov mualliflik qilgan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun mo'ljallangan "SSSR xalqlari adabiyoti" darsligida Maxtumdqulining "Basqin", "Səadət quşu", "On iki nəsihət" va "Bir axında birləşin" nomli to'rtta she'rining ozarbayjon tilidagi tarjimasi berilgan (Xəlilov P., 1956, 389).

Ozarbayjonda tom ma'noda Maxtumdquli she'rlarini tarjima qilish ishlari 1960-yilga kelib keng quloq yozdi. Ayni shu yili shoir tavalludining 225 yilligi nishonlandi. Yubiley munosabati bilan Maxtumdqulining sara she'rlari ozar tiliga o'girilib kitob holida chop etildi. She'rlarni o'sha davrning taniqli shoirlari – Ismoil Sulton, Odil Boboyev, Tofiq Mutallibov, Aliakbar Ziyotay, Husayn Abbaszoda, Aliog'a Kurchayli, Ali Karim, Navro'z Ganjali singari ijodkorlar tarjima qilgan edi (Dadaşzadənin A., 1960). Keyinchalik ushbu kitobga kirgan she'rlar tarjimasi haqida professor Panax Xalilov shunday yozgan: *"bunların bəzisi əslindən tərcümə edilsə də, tərcüməçilər orijinalı bəzən düzgün başa düşməyərək təhrifə yol vermişlər. Sətri tərcüməyə əsaslanan bədii tərcümələrin də əslinə uyğunluğu azdır"*. Ya'ni: "she'rlarning ba'ziları asliyatdan tarjima qilingan bo'lsa-da, tarjimonlar ba'zan asl matnni noto'g'ri tushunib, buzib o'girishgan. Satrma-satr tarjimaga asoslangan badiiy tarjimalar ham asl nusxaga mos kelmaydi" (Xəlilov P., 1983,9). Bu mulohazalardan tarjimaning saviyasi yuqori darajada bo'lmaganligini ko'rish mumkin. Lekin tarjimalarning saviyasiga qaramasdan bu saylanma Maxtumdquli ijodining Ozarbayjondagi keyingi tarjimalari uchun katta turtki bo'lib xizmat qildi.

Maxtumdquli she'rlarining ozar tilidagi keyingi tarjimalari o'tgan asrning 80-yillaridan boshlandi. Bu borada turkman adabiyotining taniqli tadqiqotchisi Faxriddin Aliyev xizmatlari alohida o'ringa ega. U Maxtumdquli she'rlaridan namunalarni ozarbayjon tiliga tarjima qilib, 1983-yilda kitob holida nashr ettirdi. Yana shu yili atoqli tarjimon Ahad Muxtor shoirning beshta she'rini ozar tiliga o'girib "Ozarbayjon" jurnalida chop ettirdi.

1984-yilga kelib professor Ismoil Valiyev Maxtumlulining 102 dona she'rini ozarbayjon tiliga tarjima qilib, "Qəm seli (G'am seli)" nomi bilan kitob holida nashr ettirdi.

XX asrning 90-yillaridan keyin ikki xalqning mustaqil rivojlanish yo'liga o'tgani adabiy hamkorlik masalasida katta istiqbol eshiklarini ochdi. Maxtumlul ijadi ko'plab she'riy antologiyalardan o'rin oldi. Jumladan, atoqli ozarbayjon adibi Anor tomonidan 1999-yilda tuzilib nashr etilgan "Min beş yüz ilin oğuz şeiri (Bir ming besh yuz yillik o'g'uz she'riyati)" kitobida Maxtumlulining 17 she'ri kiritilgan.

XXI asr boshlari Ozarbayjonda Maxtumlul she'rlarining ozar tiliga tarjima qilishda yangi bosqich sanaladi. Ayniqsa bu borada Feruza Ahmadovanning xizmatlari katta ahamiyatga ega. U 2006-yilda "She'rlar" deb atalgan kitobga shoirning 162 she'rini kiritdi. 2007-yilda esa akademik Nizomiy Jafarov "Turk xalqlari adabiyoti" nomli to'rt jildlik to'plamini nashr ettirdi. Turkiy ijodkorlar qamrab olingan ushbu to'plamning uchinchi kitobiga Maxtumlul ijudidan 24 she'r to'plamga kiritildi.

2010-yilda esa taniqli olim Ramiz Askar Maxtumlul she'rlarini ozarbayjon tiliga o'girib alohida kitob holida nashr ettirdi. "Tanlangan asarlar" nomi bilan nashr etilgan ushbu tarjima kitobi Maxtumlulining Ozarbayjonda mustaqillik yillarida nashr etilgan ilk yirik tarjima asaridir.

2014-yilga kelib xalqaro TURKSOY tashkiloti "Maxtumlul Firog'iy yili"ni nishonlash haqida qaror qabul qildi. Bu esa shoir ijudini keng doirada tarjima va targ'ib qilish uchun katta ufqlar ochdi. Jumladan, yirik tarjimon Ismixon Usmonli shoirning 400 ga yaqin she'rlarini asliyatdan ozar tiliga o'girib nashr qildi. Nizomiy nomidagi Adabiyot instituti xodimi Ismixon Usmonli tomonidan tarjima qilingan Maxtumlulining "Tanlangan asarlari" Ozarbayjon ilmiy jamoatchiligi tomonidan yuqori baholandi.

2014-yilda Ozarbayjonda Maxtumlul she'rlari tarjimasida yangi bir sahifa ochildi. Ozarbayjon Milliy fanlar akademiyasi Muhammad Fuzuliy nomidagi

Qo'lyozmalar instituti fondidan shoirning toshbosma usulda nashr etilgan yangi she'riy devoni topildi. Devon matnini Ismixon Usmonli turkman tilidan ozarbayjon tiliga tarjima qililib, izoh va lug'ati bilan nashrga tayyorladi. 189 she'rdan iborat ushbu tadqiqot 2015-yilda nashrdan chiqdi.

Kitobda ijodkorning hozirgacha nashr etilgan kitoblarida kirmagan qator she'rlar ham o'rin olgan. Bu esa kitobni Maxtumduli ijodini yana to'ldiradigan va boyitgan muhim adabiy voqealikka aylantirdi.

Shuningdek, Maxtumduli qadimdan o'zbek xalqi orasida mashhur bo'lgan. Adabiyotshunos olim Hamdam Abdullayevning ma'lumot berishicha, shoir Xivadagi Sherg'ozixon madrasasida tahsil olgan XVIII asrning 60-70-yillaridan uning asarlari xalq orasida keng tarqalgan edi. Maxtumduli she'rlarining ilk o'zbekcha tarjimalari u hayotligi paytidayoq Xorazmdan xalq baxshilari va hofizlari tomonidan ijodiy ravishda o'zbekchalashtirish shaklida yuzaga kelgan. Umuman olganda esa, XX asr o'rtalarigacha ham "Maxtumdulining xalqona uslub va sodda tildagi she'rlari o'zbeklarga ham tushunarli bo'lganidan ularni tarjima qilishga ehtiyoj sezilmagan, hatto 1960-yili nashr etilgan "O'zbek adabiyoti" majmuasining to'rtinchi jildi ikkinchi kitobida ham Maxtumduli asarlari asl nusxasida berilgan".

1958-yili bosilgan "Chorak asr devoni"da Maqsud Shayxzoda Maxtumdulining 1 ta "Qoni bordir" degan barmoq vaznidagi she'rini "Majnun kabi" nomi bilan o'zbekchaga o'girib e'lon qilgan. Va aynan shu yili taniqli tarjimashunos olim va mohir mutarjim J.Sharipov ham shoirning 314 ta she'rini tarjima qilib, "Tanlangan asarlar" nomi bilan nashr ettirdi, va bu tarjimalar keyinchalik, bir oz qisqartirilgan shaklda 1960, 1963 va 1976-yillarda yana juda katta adadlarda bosilib chiqdi.

Muhammad Ali Maxtumdulining birgina "Turkmanning" she'rini tarjima qilib, "Sevsam, sevilsam" kitobida e'lon qilgan. Mustaqillikning dastlabki yillarida Muzaffar Ahmad Maxtumduli she'rlari tarjimasiga qo'l urdi – u shoirning, asosan ilgari tarjima qilinmagan yangi she'rlarini o'zbekchalashtirib, avval matbuotda e'lon qildi, keyin 67 ta she'rni o'z ichiga olgan "Saylanma" to'plamini nashr ettirdi.

“Muzaffar Ahmad turkman tilini boshqa tarjimonlarga qaraganda birmuncha yaxshi bilsa-da, fors-tojik tili va islomiy istilohlardan yetarli darajada xabardor emasligi uning tarjimalarida ham qator xatolarning kelib chiqishiga sabab bo‘lgan. Chunki Maxtumluli she‘rlarida forsiy-arabiy so‘z va iboralar ham, diniy atama va tushunchalar ham nihoyatda ko‘p ishlatilgan”, deb yozadi E.Ochilov. Lekin M.Ahmadning tarjimalarida ham ayrim turkmancha so‘z va iboralar bilan bog‘liq nuqsonlar ko‘zga tashlanadi va bu haqda keying maxsus fasllarda batafsil to‘xtalamiz.

Shundan keyin turkman adabiyotidan tarjima qilish bilan shug‘ullanib, ko‘plab mumtoz va zamonaviy turkman shoirlari asarlarini o‘zbek tiliga o‘g‘irgan toshhovuzlik shoir va tarjimon Olim To‘rayev Maxtumluli ijodidan o‘g‘irgan 45 ta she‘rini alohida to‘plam holida e‘lon qildi.

Taniqli shoir va mohir mutarjim Mirzo Kenjabek uning, asosan diniy va tasavvufiy mavzulardagi 170 ta she‘rini o‘z tarjimasida alohida kitob holida nashr etish bilan Maxtumlulini “valiy shoir” sifatida tanitdi. Tarjimon kitob boshiga “Maxtumluli – valiy shoir” nomli so‘zboshi yozib, shoir she‘rlarining diniy-tasavvufiy asoslarini ochib berishga harakat qiladi. Bu bejiz emas. Chunki diniy-tasavvufiy she‘rlar shoir ijodiy merosining asosiy qismini tashkil etadi.

Taniqli shoir Jumaniyoz Jabborov Maxtumlulining 10 ta she‘rini tarjima qilib, “Jahon adabiyoti” jurnalida e‘lon qildi. Ulardan 9 tasi keyin “Dunyo o‘tib boradir” to‘plamiga ham kiritildi.

Adabiyotshunos olim, tarjimon Ergash Ochilovning bu boradagi xizmatlari alohida ahamiyatga ega. U tarjima qilgan “Bulbul nolasi”, “Elingga baxsh ayla” kitobi esa Maxtumlulining 700 dan ziyod she‘rini – hozirgacha ma‘lum bo‘lgan adabiy merosini to‘la qamrab oladi. Unda shoirning “Asarlar” to‘plamiga kirmagan 100 dan ziyod yangi she‘rlari tarjimasi berildi. Maxtumlulining “Asarlar” va “Bulbul nolasi” kitobi bori-yo‘g‘i bir yillik farq bilan nashr etilgan, keyingi tarjimalarda E.Ochilov o‘z tarjimalarini qayta nazardan o‘tkazib, o‘tib ketgan xato-kamchiliklarni tuzatgan, ba‘zilarini tahrir qilgan.

Shuningdek, Abdumo‘min Jumayev va Jumanazar Zulpiyevlar shoirning 233 ta she‘rini o‘zbekchalashtirib, “Saylanma” nomi ostida e‘lon qildilar. Folklorshunos O.Safarov 1964-yili havasga Maxtumlulining “Fuqaroman” va “Har yona” she‘rlarini tarjima qilgan. Shoir Nosir Muhammad ham Maxtumlulining “Turkmanning”, “Mubtalo qildi”, “Fig‘on aylanmas”, “Bilmadim” kabi qator she‘rlarini tarjima qilgan. M.Pirriyev ham Maxtumlulining “Bo‘larmu?”, “Er yoninda ballidir”, “Joniga tegmas”, “Mehmondir” sarlavhali to‘rtta she‘ri tarjimasini matbuotda e‘lon qildi. M.Azim Maxtumlulining 103 ta she‘rini tarjima qilib, alohida to‘plam holida nashr ettirdi.

Boshqa mutarjimlardan farqli o‘laroq, o‘zbek va qoraqalpoq tillarida ijod qilib kelayotgan Qoraqalpog‘iston xalq shoirasi Guliston Matyaqubova Maxtumluli she‘rlari tarjimasi bo‘yicha o‘z izlanishlarini olib bordi va Maxtumluli tavalludining 300 yilligi munosabatiga bag‘ishlab 526 ta she‘rni o‘z ichiga olgan “Maxtimquli” 2 jildlik kitob nashr ettirdi. Maxtumlulishunos K.Quramboyev Guliston Matyaqubova ijodi va tarjimalariga yuqori baho beradi, voqean mazkur kitob dastvarag‘idan joy olgan “Yangicha ohanglarda jilolangan tarjimalar” nomi bilan yozgan so‘zboshisida yozishicha, shoiraning “*Panoh*”, “*Navro‘zi olam derlar*”, “*Topmassan*”, “*Ko‘nglimga*”, “*Maxtimqulidan*” kabi qator she‘rlari borki, ular Maxtumlulining ilhom chashmasidan bahramand bo‘lib yozilgan go‘zal she‘riyat namunalaridir.

Bizgacha Maxtumlulining 700 dan ko‘proq she‘rlari va kichik hajmdagi dostonlari yetib kelgan. Demakki, ma‘lum bo‘lishicha G.Matyaqubova shoirning aksariyat she‘rlarini o‘zbekchalashtirgani yuksak matonat va mehnat mahsulidir.

Maxtumluli xalq maqol-matallari, hikmatli so‘zlari, obrazli iboralarini juda yaxshi biladi va mahorat bilan she‘rlari qatiga singdirib yuboradi. Ayni paytda, o‘zi ham sodda, ixcham, lo‘nda, teran hikmatlar yaratadiki, ular nafaqat turkman, balki barcha turkiy xalqlarning hikmatli so‘zlar xazinasidan joy olgan, G.Matyoqubova “Davron topilmas”, “Jonigdan”, “Bosh bo‘lma”, “Kelgandir” she‘rlari tarjimasida shunday satrlar bor:

Жаҳл билан йўлатмагил шайтонни,

Сўзга учиб унутмагил Раҳмонни... (2-жилд, 112-бет)

Тўғри юриб, тўғри кезган тўқ бўлар,

Бевақт кезган, кўп маломатга қолар... (2-жилд, 113-бет)

Ҳар кимки, гуноҳ қилса, охири азоби беҳаддир... (2-жилд, 146-бет)

Йигит қарир ёмон аёл учраса... (2-жилд, 302-бет)

Xalq tarixi, adabiyoti va hayotini chuqur bilgan bu donishmand inson teran fikrlarni xalqona sodda va lo‘nda bir tarzda she’riy misralarga tizadi. Bu she’rlar xalq donoligining yorqin namunasidir. Maxtumluli asarlarining umrboqiyiligini ta’minlagan eng asosiy omil xuddi shunda. “Maxtumluli o‘z davrining jarohatlariga aql-zakovatni, iymon va e’tiqodni, ahillik va hamjihatlikni, ajdodlar udumiga asoslangan hamdardlik va adolatli kurashni qarshi qo‘yadi va bu tuyg‘uni poetik so‘z qudrati bilan ma’naviy qurol darajasiga ko‘taradi”. Buni yuqoridagi she’riy tarjimalarni o‘qiyotgan kitobxon sergaklik bilan anglab olishi qiyin emas. Guliston Matyaqubova Maxtumlulining 1983-yilda Turkmanistonda nashr qilingan Maxtumluli “Saylanma” kitobi she’rlarini tarjima qilgan bo‘lsa kerak, sababi asliyatdagi she’rlar tarjimasi tartiblanishiga muqoyasa qildik.

Ma’lum bo‘ladiki, sho‘rolar davrida o‘zbek adabiyotida Maxtumluli asarlari birgina J.Sharipov tomonidan tarjima qilingan (M.Shayxzoda va M.Ali faqat bittadan she’rlarini o‘zbekchalashtirganlar) va katta adadlarda qayta-qayta bosilgan bo‘lsa, mustaqillik yillarida shoir she’rlari tarjimonlari soni keskin ravishda ortdi. J.Jabborov, O.Safarov, N.Muhammad, M.Pirriyev va A.Hamrolar uning bir nechadan she’rlarini o‘girishgan bo‘lishsa, M.Ahmad, O.To‘rayev, M.Kenjabek, A.Jumayev va J.Zulpiyev, E.Ochilov, G.Matyaqubova, M.Azimlar o‘z tarjimalarini alohida to‘plamlar holida chop ettirishdi. Ularning har biri mukammal tarjima yaratish yo‘lida o‘ziga xos bosqich ekani va asosan shoirning ilgari tarjima qilinmagan yangi she’rlaridan iboratligi jihatidan Maxtumluli merosini o‘zbek xalqiga to‘laligicha yetkazish yo‘lidagi izchil intilishlar natijasi ekani bilan alohida ahamiyatga ega. Umuman, Maxtumluli she’riy merosining tarjimalari bo‘yicha

statistik tahlilga tayanadigan bo'lsak, shoir ijodi turkiy xalqlar adabiy merosida alohida o'rin egallaydi. Shoirning asarlari turli davrlarda va turli tillarda tarjima qilinib, keng auditoriyaga taqdim etilgan. Ayniqsa, o'zbek, qoraqalpoq va ozarbayjon tillaridagi tarjimalar soni salmoqli bo'lib, ular orasida qayta tarjimalarning mavjudligi tarjimashunoslikda muhim tahliliy mezon sifatida ko'riladi. Quyidagi statistik ma'lumotlar Maxtumduli she'rlarining uch turkiy tildagi tarjimalari va ularning qayta tarjima holati bo'yicha taqsimotini ko'rsatadi:

1-jadval.

<i>Tillar</i>	<i>Umumiy tarjimalar soni</i>	<i>Qayta tarjimalar soni</i>	<i>Asliyga yaqin birlamchi tarjimalar soni</i>
O'zbek tili	2031 ta	1118 ta	1413 ta
Qoraqalpoq tili	489 ta	82 ta	407 ta
Ozarbayjon tili	805 ta	102 ta	703 ta

Qayta tarjimalar deganda – ilgari tarjima qilingan she'rlarning boshqa tarjimonlar tomonidan yangi uslubda yoki zamonaviy tahrirda takror tarjima qilinishi tushuniladi. Bu hol tarjima jarayonining evolyutsion tabiati, shuningdek, tarjimashunoslikdagi estetik va lingvistik izlanishlarni anglatadi. Birlamchi tarjimalar esa to'g'ridan-to'g'ri asl manbadan amalga oshirilgan, yangi mualliflik yondashuviga ega bo'lgan tarjimalar hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichlar tarjimonlar tomonidan Maxtumduli matnlariga bo'lgan qiziqish, tarjimaning davriy va uslubiy xilma-xilligi haqida muhim ma'lumot beradi. O'zbek tilidagi tarjimalar soni boshqa tillarga nisbatan yuqoriligi bu tilda Maxtumduli ijodiga doir tadqiqotlar va tarjima faoliyatining keng qamrovli olib borilganidan dalolat beradi.

Eng muhimi, bir yarim asr mobaynida Maxtumduli asarlari tarjimasiga dunyo tarjimonlari qo'l urishining o'zi shoir nomining jahon adabiyotida qanchalik mashhurligiyu she'rlari tarjimasiga zamon talabi, o'quvchilar ehtiyojining kattaligidan dalolat beradi. Albatta, Maxtumduli merosi o'zbek tiliga to'la tarjima

qilingan. Ba'zi asarlarining besh, olti, hatto yetti tarjima nusxalari mavjud. Lekin bu shoir she'rlari tarjimasi borasidagi ishlar nihoyasiga yetdi degani emas. Deyarli barcha tarjimonlar so'zma-so'z tarjima qilib, o'z tarjimalarida xatolarga yo'l qo'ygan o'rinlari borki, bu hol kelgusida Maxtumduli she'rlarining poetik jihatdan yetuk tarjimalarini amalga oshirish zaruriyatini ko'rsatadi. Umuman olganda, turkman adabiyotining buyuk ijodkori Maxtumduli asarlarini o'zbek, qoraqalpoq, ozar tillariga tarjima etish qariyb ikki asrlik taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Shoir she'rlarining ozar tilidagi tarjimalarini Ozarbayjonning mustaqillikkacha va mustaqillik davrdagi tarjimalar sifatida ikki katta davrga ajratish mumkin bo'ladi. Shoir asarlari tarjimasi borasida o'zbek, qoraqalpoq, ozarbayjon olimlari katta ilmiy natijalarni qo'lga kiritdi va hozirga qadar Maxtumdulining boy merosini o'rganish va tarjima etish ishlari izchil davom etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Гачечиладзе Г. Введение в теорию художественного перевода. – Тбилиси: издательство Тбилисского университета, 1970. – С. 5–7.
2. Саломов Ф. Тил ва таржима. Тошкент: Фан, 1966. 6.
3. Комилов Н. Бу қадимий санъат // Таржима санъати (Мақолалар тўплами). 3-китоб. – Тошкент: Ф. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976. 55.
4. А.Абдыев. Магтымгулы. Библиографик гөркезижи. (1842-1984). Ашгабат: Ылым, 1993., 28-29 бетлар.
5. Қурамбоев К. Махтумқули – илҳом чашмаси. Т.: Tafakkur нашриёти, 2011. 146.
6. Очилов Э. Махтумқули асарларининг ўзбекча таржималари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 2008. № 5. – Б. 14.
7. Тайлақова М., Сапаров М. Махтумқули асарлари тилининг ўзбекча таржимасига баъзи бир қайдлар. Ўзбек филологияси масалалари (Илмий асарлар тўплами). – Т.: Фан, 1990. – Б. 52.
8. Sapayeva F.D., Abdullayev M.A., Jepbarova.S.K. Maxtumduli asarlarining o'zbekcha-turkmancha qisqacha izohli lug'ati. – Toshkent, Firdavs-shoh, 2022.

9. Владимирова Н. Иллат қаердан бошланади? \ \ Таржима санъати (Мақолалар тўплами). 6-китоб. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1985. – Б. 79.
10. Mümtaz Salmon. Türkmən şairləri. “Maarif və mədəniyyət” jurnalı, 1923, № 8. S. 313-316.
11. Отепбергенов А. Мақтымқулы. Нөкис, Қарақалпақстан, 2012. 94-95.
12. Хəlilov Pənah. Bakı, Azərbaycan Dövlət Universitetinin nəşriyyatı, 1956. s 389.
13. Məxdumqulu. Şeirlər. Müqəddimə A.Dadaşzadəninidir. Redaktoru İ.Soltan. Bakı, Azərbaycan Dövlət Nəşriyyatı, 1960.
14. Хəlilov P. İki əsrin poeziyası. Klassik türkmən şeiri. Bakı: Yazıçı, 1983. s 9.
15. Магтымгулы. Сайланан эсерлер. Ики томлук. 1, 2-том. Ашгабат. “Туркменистан”, 1983.

REFERENCE

1. Gachechiladze G. (1970). Introduction to the theory of literary translation. Tbilisi: Tbilisi University Publishing House.
2. Salomov G'.(1966). Language and Translation. Tashkent: Fan.
3. Komilov N. (1976). This Ancient Art // The Art of Translation (Collection of Articles). Book 3. Tashkent: G. Gulyam Publishing House of Literature and Art, 55.
4. A.Abdiev. Magtymguly. Bibliographic Guide. (1842-1984). Ashgabat: Ilim, 1993.
5. Kurambaev K. (2011). Makhtumkuli - a source of inspiration. T.: Tafakkur Publishing House.
6. Ochilov E. (2008). Uzbek translations of Makhtumkuli's works // Uzbek language and literature. T., No 5.
7. Taylakova M., Saparov M. (1990). Some notes on the Uzbek translation of Makhtumkuli's works. Issues of Uzbek Philology (Collection of Scientific Works). T.: Fan.
8. Sapaeva F.D., Abdullaev M.A., Jepbarova S.K. (2022). Uzbek-Turkmen Concise Explanatory Dictionary of Makhtumkuli's Works. Тошкент.
9. Vladimirova N. (1985). Where does vice begin? \ \ The Art of Translation (Collection of articles). Book 6. T.: Literature and Art named after G. Gulyam.

10. Mumtaz Salman. (1923). Turkmen Poets. Journal “Maarif va Madaniyat”, No. 8.
11. Otepbergenov A. (2012). Maqtimquli. Nukus, Karakalpakstan.
12. Khalilov Panah. (1956). Baku, Azerbaijan State University Publishing House.
13. Makhdumkulu. (1960). Poems. Muqaddime is from A. Dadazza. Edited by I. Soltan. Baku, Azerbaijan State Publishing House.
14. Khalilov P. (1983). Poetry of Two Centuries. Classical Turkmen poetry. Baku: Yazıçı.
15. Magtymguly. (1983). Selected Socialist Revolutionaries. Two Tomluks. Vol. 1, 2. Ashgabat. “Turkmenistan”.